



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI F A R M O Y I S H I

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2023 - yil 18 - may

80-5-74-F/23

Nurota tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-5177-son va 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qarorlari, viloyat hokimining 2022-yil 30-noyabrdagi 235-5-0-Q/22-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek tuman hokimligida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 43, 44-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1995-yil 20-sentabrda 177-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarinii moddiy rag'batlantirish maxsus fondi to'g'risida"gi nizomga asosan,

1. 2023-yil 18-maydan boshlab tuman hokimligida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyatini olib borish, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish, hisobot hujjatlarini yuritish va shakllantirish vazifasi tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi Kenjayev Ulug'bek Baxshillayevich zimmasiga yuklatilsin va 2023-yil xarajatlar smetasida har bir ishlovchi xodim uchun rejalashtirilgan moddiy rag'batlantirish maxsus fondi mablag'lari hisobidan xodimga qo'shimcha vazifa yuklatilganligi sababli, yil davomida oylik lavozimiy maoshi (tarif stavkasi)ning 30 % miqdorida har oyda alohida ustama berib borilishi belgilab qo'yilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi A.Abduxalimov to'lovlarni o'z vaqtida tegishli tartibda hisob-kitob qilinishini ta'minlasin.

3. Ushbu farmoiysh ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Bo'riev va tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari X.Tuycheyev zimmasiga yuklansin.

Asos: Viloyat hokimligining 2023-yil 4-apreldagi 02/02-sonli xati va U. Kenjayevning rozilik xati.

Tuman hokimi



A.Fayziyev